

DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA GENDER TAHLIL MOHIYATI VA UNING USLUBIY YONDASHUVLARI

Azizova Mahbuba

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi Akademiyasi tayanch doktoranti
mahbubaazizova95@gmail.com*

Annotatsiya. *Maqolada gender tahlili tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy voqelikda qo'llanilish zarurati, shuningdek gender tahlil o'tkazishning uslubiy yondashuvlari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *gender tahlil, davlatning gender siyosati, Moser sxemasi, gender tahlil matritsasi, Garvard analitik yondashuvi.*

Аннотация. *В статье раскрывается сущность понятия гендерного анализа и подчеркивается необходимость его применения в социально-политической реальности. Также рассматриваются методологические подходы к проведению гендерного анализа.*

Ключевые слова: *гендерный анализ, государственная гендерная политика, схема Мозера, матрица гендерного анализа, Гарвардский аналитический подход.*

Annotation. *The article describes the essence of the concept of gender analysis and the need for its application in social-political reality, as well as methodological approaches to gender analysis.*

Key words: *gender analysis, state gender policy, Moser scheme, gender analysis matrix, Harvard analytical approach.*

Gender tushunchasi (inglizcha gender, lot. Genus – urug', jins) jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u an'anaviy jamiyatlarda erkaklarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ayollardan ustunligining sabablarini aniqlash asosida tashkil topgan. Oxirgi o'n yilliklarda mazkur hodisalar qayta ko'rib chiqilmoqda, va bu jarayonlar siyosiy va ijtimoiy gender masalalari bo'yicha muhokamalarda o'z ifodasini topmoqda. Misol uchun, BMT kun tartibiga kiritilgan gender tengligi bo'yicha vazifalar o'z ichiga ayollarning jamiyat siyosiy hayotida faolligini kuchaytirish, ularning jamiyatdagi ta'sirini oshirish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish kabilarni oladi.

Gender tengligi sohasidagi eng samarali va foydali qurollardan biri – bu gender tahlili (GT) hisoblanadi va u jamiyatning barcha sohalaridagi ayollar va erkaklarning turli guruhlarining manfaatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, mazkur maqsadlar uchun byudjet mablag'larini

yo'naltirish imkonini beradi. GT davomida ayollar va erkaklarga xos bo'lgan turli faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning hayot tarzlari, ehtiyojlari, ularning turli resurslarga egalik qilish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Gender tahlilida mazkur o'zaro aloqador hodisalarning barchasi kengroq ijtimoiy, siyosiy va ekologik kontekstda tadqiq qilinadi, va unda hokimiyatning taqsimlanishining o'ziga xos xususiyatlari va sabablari nisbatan chuqur o'rganiladi. Gender tahlilining metodlaridan, shuningdek, inson resurslarini boshqarish va davlat byudjetini ishlab chiqish kabi amaliy sohalarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

Gender tahlili - o'rganilayotgan ob'yektning, masalan, ijtimoiy hodisaning gender omiliga bog'liqligini yoki aksincha - o'rganilayotgan ob'yektning jinsga ta'sirini aniqlash [1].

Shuningdek, gender tahlili - jamiyat va davlatning barcha sohalarida mavjud yoki taklif etilayotgan dasturlar, qonunchilik, davlat siyosati orqali ayollar va erkaklarga turli ta'sirlarni baholash jarayonidir hamda sifatli ma'lumot to'plash va iqtisodiyot va jamiyatdagi gender tendensiyalarini tushunish, bu bilimlardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va kundalik ishda yechim topish uchun foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy jarayonlarni tushunish uchun vositadir.

Gender tahlili jamiyatdagi erkaklar va ayollarning o'zaro munosabatlarini tadqiq etadi va aniqlaydi, bu boradagi tengliklarga urg'u beradi va quyidagi savollarni o'rta tashlaydi:

Kim nima bilan shug'ullanyapti?

Kim nimaga egalik qilyapti?

Kim qanday tarzda qaror qabul qilyapti?

Kim yutyapti?

Kim yutqazyapti?

Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida tadqiqotchilar, shuningdek, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi rollari va maqomlari to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'ladi. Gender tahlilida oiladagi hukmronlik munosabatlari va xalqaro, davlat, bozor va mahalliy jamoatchilik darajasidagi hokimiyat munosabatlari bilan aloqasi ko'rib chiqiladi. Ayollar va erkaklar orasidagi barcha tengsizliklar, shuningdek, ijtimoiy sinf, irq etnik va diniy kelib chiqish, nogironlikning mavjud bo'lishi kabi omillar bilan ham belgilanadi.

Erkaklar va ayollar tomonidan bir xil sharoitlarda qabul qilinadigan qarorlar bir-biridan keskin farqlanishi mumkin va u yoki bu savollarning turli gender guruhlari uchun ahamiyati ham bir xil emas. Masalan, UN Global Pulse va Leyden universiteti tomonidan o'tkazilgan "Sex disaggregation of social media posts" (UN Global Pulse, 2016) loyihasida ayollar va erkaklarning muhim deb hisoblovchi sohaları turlicha bo'lib chiqqan (mazkur tahlil Twitter tarmog'iga joylangan postlar asosida o'tkazildi). Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollarni

ko'proq transport tizimi va yo'l tarmog'ining yaxshilanishi, yaxshi ta'lim, erkaklar va ayollar tengligi, jinoyatchilik va zo'ravonlikdan himoya, telefon aloqasi va Internet tarmog'iga egalik muammolari o'ylantiradi. Erkaklar esa ko'proq iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish, korrupsiyalashgan mas'uliyatli hukumat, mehnat bozorida imkoniyatlarning yaxshilanishi, va siyosiy erkinliklar masalalari ustida ko'proq bosh qotiradi. Tadqiqot shundan dalolat bermoqdaki, diskriminatsiya va ta'qiblardan himoya masalalari ham erkaklar va ham ayollar uchun bir xil darajada dolzarb ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga oid tadbirlarni o'tkazishda qaror qabul qilish asosida ularning gender jihatdan neytralligi to'g'risidagi tasavvur yotadi. Biroq, bir qator tadqiqotlarga ko'ra, bu neytrallik – shunchaki yuzakidir, bir xil tadbirning ikki xil gender guruhlari vakillariga bir xil ta'sir qilishi to'g'risidagi tasavvur esa xatodir.

Misol uchun, moliyaviy rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar fikricha, byudjet xarajatlarining aholi soniga qarab baholanishi bu borada barchaning tengligining kafolatidir. Bu yerda murakkablik ayol va erkaklarning amaliy ehtiyojlari sohasidagi gender farqlarida va bu farqlarning moliyaviy rejalarda, byudjetlarda aks etishi mexanizmlarida namoyon bo'ladi. Mohiyatan, bu yerda gap byudjetning "gender neytral" sifatida idrok etilishi haqida ketmoqda, amalda esa bu "gender so'qir" byudjet degani, va bu mavjud bo'lib kelayotgan diskriminatsion amaliyotlarni yanada mustahkamlashi mumkin. Masalan, davlatning ijtimoiy xizmatlarga ajratiluvchi xarajatlarini keskin qisqartiruvchi qattiq byudjet siyosati daromadga ega bo'lmagan va uyda o'tiruvchi ayollarning og'ir ahvolga tushib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin, ayollar esa o'zlariga ko'rsatilgan yordamni davlatga qaytarishga va iqtisodiyotga o'z ishchi kuchlari va mahsulotlari bilan o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Aholining barcha qatlamlarini toza suv va sanitariya jihozlariga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytiradigan ijtimoiy infrastruktura sohasidagi davlat investitsiyalari ayollarga ko'proq haq to'lanadigan ish bilan band bo'lish va bu esa nafaqat ayollarning oiladagi mavqeining oshishiga, balki ularning shaxsiy farovonlik darajasining oshishiga va farzandlarining turmush darajasining yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Bu esa uzoq muddatga mehnat mahsuldorligining oshishiga olib keladi. Ijtimoiy himoya tarmoqlarini kengaytirishga qaratilgan dasturlar esa, masalan, pul o'tkazmalari dasturlari, oilalar va bolalar farovonligini oshirishda ayniqsa samaralidir, chunki uy xo'jaligi resurslari erkaklar tomonidan emas, balki ayollar tomonidan yo'naltiriladi [2]. Misol uchun, Mark Pit va Shaxidur Handkerning "Guruh kredit dasturlarining Bangladeshdagi kambag'al oilalarga ta'siri: qatnashuvchilarning jinsi ahamiyatga egami?" nomli tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, hayot darajasini oshirish maqsadida yordam sifatida berilgan har 100 tak pul miqdoridan ayollarga berilganda har yili oilaning xarajatlari 18 tak miqdorida o'sgan, erkaklarga berilgan har 100 takdan esa harakatlar 11 takga o'sgan.

Qolaversa, agar berilgan kreditlarning ta'sirini hayot darajasining boshqa bir qator ko'rsatkichlari (oila xarajatlari, ayollarda mavjud mulk egaligi; ayollar va erkaklarning mehnat resurslari; o'g'il bolalar va qiz bolalarning o'qish ko'rsatkichlari) bilan solishtiradigan bo'lsak, kreditning ayollarga berilgan taqdirda yuqoridagi parametrlarning barchasi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilishini ko'rish mumkin. Agar bu misolda erkak kishi kredit qabul qiluvchi bo'ladigan bo'lsa keltirilgan olti parametrlarning faqat bittasida ijobiy o'zgarish kuzatiladi [3].

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining 90 dan ortig'i fuqarolik jamiyati, hukumat va xalqaro tashkilotlarni qamrab oluvchi turli gender byudjet tashabbuslarini amalga joriy qilmoqda. Mazkur mamlakatlar malakasi ko'rsatmoqdagi, gender byudjet siyosati aholi uchun xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi, konkret iste'molchining talablarini hisobga olgan holda byudjet xarajatlarini nisbatan aniq va ravshan taqsimlashga, shuningdek mavjud resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi [4].

Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda barcha darajadagi qaror qabul qilish jarayonlarida gender omillarini hisobga olish kerak. Gender tengsizligining fundamental sabablari ustida olib borilgan chuqur tahlil siyosiy va dasturli javoblarni talab qilishi mumkin.

Gender tahlili uch yo'nalish bo'yicha samarali qurol sifatida xizmat qilishi mumkin:

- Nishondagi guruhlar uchun maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- Gender tengligini ta'minlash masalalarini milliy, mintaqaviy va mahalliy dasturlar va loyihalarga birlashtirish, barcha ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda gender yondashuvidan foydalanish;
- Gender tengligi masalalarida ijtimoiy muloqotni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Gender tahlil texnologiyasini qo'llash bilan asoslangan gender tengligiga erishish imkonini beruvchi ma'muriy qarorlar milliy yoki mintaqaviy darajada gender tengligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus harakatlar rejalarining qabul qilinishi bilan to'ldirilishi mumkin.

Gender tengligini mustahkamlashda ochiq siyosiy ixtiyor ifoda qilinishi kerak. Biroq siyosatchilar ham, mahalliy hokimiyat vakillari ham mazkur ixtiyorni amaliyotga va hayotga tatbiq etish uchun amaliy qurollarga muhtojlik sezadilar. Gender yondashuvning boshqaruv tizimiga kompleks integratsiya qilinishi gender omillarini har tomonlama hisobga oluvchi va olinadigan natijalarni gender tengligini mustahkamlashi nuqtai-nazaridan baholovchi gender tahlilini joriy qilinishiga asoslanadi.

Gender tahlilini o'tkazishga nisbatan yagona yondashuv yoki uning yagona modeli mavjud emas, chunki turli mamlakatlarda va turli faoliyat sohalarida turli sub'yektlar faoliyat olib boradi (hukumat, parlamentlar yoki nodavlat

tashkilotlari) turli vazifalar, strategiyalar, madaniy an'analar, ijro hokimiyati darajalari va siyosiy vaziyatlar bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham mualliflar konkret sharoitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan tahliliy qurollarni ishlab chiqqan.

Gender tahlilining barcha metodlari ijtimoiy tadqiqotlarda integratsiyalash imkoniyatini ta'minlashga va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, hamda ma'muriy qarorlar qabul qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qarab mo'ljal oladi. Gender analitik byudjetining maxsus metodlari yaxshi ishlab chiqilgan, biroq ularning tavsifi mazkur tadqiqot doirasiga taalluqli emas.

Har bir metod mantig'iga ko'ra, ulkan miqdordagi muammolar orasidan faqatgina cheklangan miqdordagi muhim deb hisoblangan omillar o'rganib chiqilganligi sababli, ularning har bir voqelikning faqatgina qo'pol modelini yaratish imkonini beradi. Har qanday yondashuvda omillarning tanlanishi uning muallifi tomonidan muayyan qadriyatlar va qarashlarning to'plamini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, bugungi kungacha ishlab chiqilgan metodlarning tarkibiy qismlarini birlashtirib, gibridd yondashuvlardan ham foydalanish mumkin. Gender tahlilida erkaklar va ayollar hayotining muayyan omillari hisobga olinadi, shunday ekan biz uchun gender doiralari asosida yotuvchi tafakkur tarzini qo'ldan kelguncha hisobga olish lozim.

Gender tahlili uchun yondashuv tanlash qo'yilgan vazifa, kontekst va mavjud resurslarga bog'liq bo'ladi.

1. Garvard analitik yondashuvi - (Harvard Analytical Framework)

"Gender rollari strukturasi" deb ham ataluvchi mazkur yondashuv Garvard xalqaro rivojlanish instituti tomonidan USAID "Rivojlanishdagi Ayollar" ofisi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va birinchi marotaba 1984-yilda Ketrin Overholt (Catherine Overholt) va boshqalar tomonidan ta'riflangan. Mazkur yondashuvning eng asosiy g'oyalaridan biri bu rivojlanish uchun ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam dasturlarida moliyaviy yordam mablag'larini erkaklar va ayollar uchun alohida ajratish va ularni alohida yetkazib berish, ularning mo'ljallangan egalariga borib tushishini ta'minlash chuqur iqtisodiy mazmunga ega: bu "samaradorlikni oshirishga yondashuv" deb ataladi. Garvard analitik yondashuvi jamiyat va uy xo'jaliklaridan axborotni yig'ib olishda qo'llaniladi. Unda kim qanday vazifalarni bajaradi, kimlar muayyan resurslarga egalik yoki ularni nazorat qilish imkoniga ega, degan savollarga javob olishingiz mumkin, shuningdek, unda gender rollariga bo'lgan ta'sir ham ochib beriladi. Faoliyat profilida barcha mos produktiv va reproduktiv vazifalar uchun "Kim nima qiladi?" savoliga javob beradi. Egalik va nazorat qilish profili faollik profilida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan resurslarni aniqlaydi, va mazkur resurslarga kim egalik qilishini, ulardan kim foydalana olishini, ularni kim nazorat qilishini aniqlaydi. Unda har bir harakatning amalga oshirilishi natijasida yuzaga keluvchi imtiyozlar aniqlanadi va kim mazkur imtiyozlarga ega va ularni nazorat qilishi aniqlanadi. So'nggi "Ta'sir omillari" bo'limida har ikkala profilda

ko'rsatilgan har ikkala jinsning farqlanishini taqozolovchi omillar ta'riflanadi. Unda gender rollarini o'zgartirish imkoni bo'lgan sohalar belgilab qo'yiladi.

Neytral va faktlarga yo'nalgan mazkur metod ko'pincha ayollar va erkaklar orasidagi kuchlar muvozanati masalalarida mushkulotlarga duch keluvchi insonlar bilan gender rollari masalalari muhokamasini boshlash uchun foydali ahamiyatga ega. Bu metodni iqtisodiy tafakkur tarziga ega insonlar bilan bahslarda qo'llash yaxshi natija beradi.

Ko'rib chiqilayotgan yondashuv dasturlarga emas, loyihalarga, natijadorlikka emas, balki samaradorlikka e'tibor qaratadi. Bu strategik gender ehtiyojlarini aniqlash imkonini bermaydi va gender tengsizligini hal qilish uchun yechimlar taklif qilmaydi. Yondashuvga ko'ra, gender ehtiyojlar iqtisodiy samaradorlik uchun ham qondirilishi kerak va unda adolat, hokimiyat munosabatlari yoki qaror qabul qilish jarayoni tushunchalariga kam e'tibor beriladi. Yondashuv ko'rib chiqilayotgan masalani soddalashuviga olib keladi va unda vaziyatning sub'yektlari, irq, sinf, etnik kelib chiqish va boshqa samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi omillar hisobga olinmaydi. Shuningdek unda turli kontekstdagi va turli hayot sikllaridagi uy xo'jaliklari tiplari ham ko'rib chiqilmaydi.

2. Insonlarga yo'naltirilgan rejalashtirish konsepsiyasi (PeopleOriented Planning Framework) ko'pincha planlashtirish konsepsiyasi deb ham ataladi, u Garvard yondashuviga asoslanadi va favqulodda vaziyatlarda qo'llash uchun mo'ljallangan. Mazkur konsepsiya Kanada xalqaro taraqqiyot agentligi (CIDA) moliyaviy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan ikki metodlar har qanday loyiha yoki chora tadbirlarni qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash uchun qo'llansa yaxshi natijalarga olib keladi. Har ikkala yondashuvda ham mikrodarajali tahlil qo'llaniladi. Ularni insonlarning ijtimoiy va iqtisodiy mavjudlik shart-sharoitlari bir birinikidan tubdan farqlanuvchi katta mintaqalarga qo'llash qiyin. Mazkur yondashuvlar gender muammosi bilan yangi boshlangan ish uchun qulay, chunki ular asosan faktlarga asoslanadi. Mazkur metodlar ko'pincha Moser sxemasi bilan biriktirilgan holda qo'llaniladi, chunki mazkur sxema strategik gender manfaatlari konsepsiyasini ham tadqiqot doirasiga kiritish imkonini beradi.

3. Moser gender tahlili sxemasi

Kerolayn Moser 1980-yillarda London universiteti rivojlanishni rejalashtirish bo'limida ishlay turib gender analizi uchun Moser Framework deb ataluvchi sxemani ishlab chiqqan. Karen Levi bilan hamkorlikda u uning yondashuvini gender siyosati va rejalashtirish metodologiyasiga kengaytirdi. Moser tizimi "Gender va taraqqiyot" tamoyiliga asoslanadi, bunda gender munosabatlarining ahamiyati tan olinadi, va empirik faktlarning to'planishi nazarda tutiladi. Mazkur sxemaga ko'ra, gender tahlili gender rollarini ta'riflashni,

gender ehtiyojlarini baholashni, uy xo'jaligida resurslar ustidan nazorat va qarorlar qabul qilishda qo'shiluvchi hissani teng taqsimlashni ko'rib chiqadi.

Moser sxemasiga ko'ra gender tahlilining mohiyati shunday:

1. Gender rollarini aniqlash (uch tomonlama rollar: reproduktiv, ishlab chiqaruvchi, tashkiliy-ijtimoiy faoliyat);

2. Gender ehtiyojlarini baholash. O'z ichiga ayollarning amaliy va strategik gender ehtiyojlarini – ya'ni o'zlarining rollari va vazifa va burchlari natijasida kelib chiquvchi ehtiyojlarni; va agar qondirilsa ayollarga mavjud gender tengsizligidagi kurashda yaxshiroq qatnashish imkonini beruvchi ehtiyojlarni o'zi ichiga oladi.

3. Uy xo'jaligida resurslar ustidan nazorat va qarorlar qabul qilishda qo'shiluvchi hissani teng taqsimlash (Kim nimani nazorat qiladi? Kim nimani hal qiladi? Qanday?).

4. Uch tomonlama rollar muvozanatini rejalashtirish.

5. Strategik yondashuvlar va hukumatning aralashishi maqsadlari (ijtimoiy ta'minot, adolat, kambag'allikka qarshi kurash, iqtisodiy salohiyatni oshirish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish) ni bir biridan farqlash.

6. Ayollarni, shuningdek gender munosabatlarini anglashga xizmat qilayotgan tashkilotlar va alohida shaxslarni qarorlarni rejalashtirish va qabul qilish jarayoniga tortish.

Mazkur tizimni barcha darajadagi rejalashtirishda, misol uchun loyihaviy yoki davlat rejalashtirishida, shuningdek, ayollarning bo'ysunuvchan roldan boxabarlik va uni bartaraf qilish uchun tashkil etilgan treninglarda, va muammolarni hal qilishning ehtimoliy yechimlarini izlashda qo'llash mumkin.

4. Gender tahlili matritsasi. Rani Parker tomonidan ishlab chiqilgan.

Yondashuvning asosiy g'oyasi – ma'lumotlar to'plash imkoni yo'q yoki qiyin bo'lgan vaziyatlarda elastiklikni ta'minlash imkonini beruvchi partisipativ (ishtirokchi) rejalashtirish.

GTMning asosiy tamoyillari:

- Gender tahlili uchun barcha zarur ma'lumot insonlar orasida mavjud, va ularning hayoti tahlildan maqsad hisoblanadi;

- Gender tahlili jamiyatdan tashqarida bo'lgan insonlarning texnik malaka va ko'nikmalariga ehtiyoj sezmaydi (ular shunchaki fasilitatorlar sifatida maydonga chiqishi mumkin);

- Gender tahlil faqat o'sha guruhning o'z a'zolari tomonidan amalga oshirilsagina ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlarga turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tahlil jamiyatning to'rt "darajalari" da: ayollar, erkaklar, uy xo'jaligi va jamiyat darajalarida olib boriladi. GTMda to'rt sohadagi ta'sir ko'rib chiqiladi, bular: mehnat, vaqt, resurslar (ulardan foydalanish imkoni va ularni nazorat qilish imkoni) va ijtimoiy-madaniy omillar.

Gender tahlili matritsasi (andoza)

| | Mehnat | Vaqt | Resurslar | Madaniyat |
|--------------|--------|------|-----------|-----------|
| Ayollar | | | | |
| Erkaklar | | | | |
| Uy xo'jaligi | | | | |
| Jamoatchilik | | | | |

Mehnat: buning xarakteristikasiga vazifalardagi (masalan, daryodan suv tashish) o'zgarishlar, talab qilinadigan malaka darajasi (malakali va malakasiz mehnat, formal ta'lim, o'qitish), va mehnatga layoqat (Vazifani necha kishi bajara oladi va ular qancha vazifa bajara oladi? Ishchi kuchi yollash kerakmi, yoki buni oilaning o'zi ham bajara oladimi?)

Vaqt: tadqiqot muayyan vazifani bajarish uchun talab qilinadigan vaqt miqdorining o'zgarishini ta'riflaydi.

Resurslar: bu yerda gap resurslardan foydalanish imkoniyatida sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida ketmoqda.

Ijtimoiy-madaniy omillar: mazkur parametrlar loyiha natijasida qatnashuvchilarning hayotining ijtimoiy jihatlarida sodir bo'lishi lozim bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Gender tahlili matritsasining bir bora qo'llanilishi shunchaki mavjud vaziyatni bir bora, harakatsiz holda tasavvur qilish imkonini beradi. Biroq, bu takroran qo'llanilsa, o'zgarishlarning ijobiy yoki salbiy ta'sirlari dinamikasini ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shevchenko, Z. V. (Uklad.). (2016). Gender atamalarining lug'ati. Cherkassy: Vidavets Chabanenko Yu.

2. Pickbourn, L., Ndikumana, L. The Impact of the Sectoral Allocation of Foreign aid on Gender Inequality // Journal of International Development. Volume 28, Issue 3, April 2016.

3. Нуреев Р.М. Экономика развития: модели становления рыночной экономики: учебник / Р.М.Нуреев. 2-е изд., перераб.и доп. — М.: Норма: ИНФРА-М, 2010. — С. 335–339

4. Гендерные аспекты бюджетирования на местном уровне. Практическое пособие. — К., 2012. — С. 2. [Электронный ресурс] Режим доступа: <http://library.fes.de/pdf-files/bueros/ukraine/09513.pdf>.